

QAYNONA-KELIN MUNOSABATLARINI HORIJ TAJRIBASIDA O`RGANILISHI

<https://doi.org/>

Sadullaeva Jamilaxon Ibodilla qizi

"Oila va xotin qizlar" ilmiy tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Annotation

Ushbu maqola oilalarning urf-odatlari hamda qaynona-kelin munosabatlarini yoritib bergen. Maqolada osiya va horij oilalaridagi qaynona kelin munosabatlari o`rganilgan.

Аннотация

Эта статья проливает свет на семейные традиции и свекровные отношения. В статье рассматриваются отношения свекрови и невестки в азиатских и иностранных семьях.

Annotation

This article sheds light on family traditions and mother-in-law relations. The article examines mother-in-law and daughter-in-law relations in Asian and foreign families.

Kalit so`zlar

Oila, an`alar, qaynona, kelin, farzand.

Ключевые слова

Семья, традиции, свекровь, невестка, ребенок.

Key words

Family, traditions, mother-in-law, daughter-in-law, child.

Kirish.Oila jamiyatning bir bo`lagidir. Oila muqaddas bo`lib, vatan ichidagi kichik bir vatandir. Har bir xalqning urf-odati bo`lgani kabi, har bir oilaning ham o`z an`analari mavjud. Oilalardagi o`zoro munosabatlar ham qadriyat sifatida avloddan-avlodga o`tib kelmoqda. Masalan kattalarga hurmat kichiklarga izzat, ota-onaga qariganda g`amxo`rlik qilish, dasturxon atrofida utirish odobi kabilarni kiritish mumkin. Oilada ayniqsa qaynona-kelin munosabatlarini to`g`ri yo`lga qo`yish oilaning yanada mustakam bo`lishiga asos bo`ladi. Qaynona-kelin munosabatlari nafaqat o`zbek oilalarida balki butun dunyo xalqlarida mavjud bo`lib, urf-odatlarida farq qiladi. Ushbu maqolada horij va osiyo mamlakatlaridagi xalqlarning qaynona-kelin munosabatlari ko`rib chiqiladi.

Yaponiya tarixi boshqa xalqlarning tarixidan ana`nalari, g`oyalari bilan ajralib turadi. Yapon xalqi ham o`z an`ana va g`oyalarini davom ettirishga sodiq bo`lib, an`analari hozir ham davom etib kelmoqda. Yaponya oilalarida yozilmagan

an`analar mavjudki ularni buzish umuman mumkin emas deb hisoblashadi. Yaponiya o`z an`analariga sodiq mamlakat desa ham bo`ladi. Oila yapon tilida *kazoku* (*kāzoku*)deb ataladi. Boshqa jamiyatlarda bo'lgani kabi, u asosan erxotindan iborat.

Tarixdan oilaning barcha a'zolari oilaning abadiyligiga hissa qo'shishi lozim bo`lgan, bu oila a`zosining eng oliv burchi hisoblanadi.

An'anaviy yapon oilasida o`g'il uylangandan so`ng rafiqasi, ota-onasi bilan birga yashaydi. Ular ota-onalar qariganlarida ularga g'amxo'rlik qilishi kerak. Yaponiyada ota-oni merosi katta farzandga beriladi. Katta farzandning oilasi bilan birga yashashadi. Shu bilan birga katta farzand oilaning urf-odatlari saqlanib qolishiga ham ma`sul shaxs hisoblanadi.

Yaponiyada 20-asrning o`rtalarigacha faqat an'anaviy oilalar mavjud bo`lgan. An'anaviy oilalarda erkak oila boshlig'i bo`lib kelinlarning mavqie juda past bo`lgan. Kelinlar uy xo`jaligidagina ishlagan. Qaynona-qaynotasiga g'amxo'rlik qilish ham aynan kelinning zimmasida bo`lgan. Yaponlar kelin nasl davomchisi deb hisoblagani bois eng dastlabki vazifasi merosxo'r taqdim etish deb qarashadi. Yaponlar merosxo'r masalasiga katta e'tabor berishadi. (Agar oilada o`g'il merosxo'r bo`lmasa qizning kyovini o`g'il sifatida asrab olishadi va qizning oilasida yashay boshlaydi). Yapon olilalarida kelin asosan qaynona vasiyligida ish o`rganadi. Kelinni oiladagi o`rni xo`jalik ishlarini bajarish va merosxo'r dunyoga keltirish orqali ko`tarilib boradi. An'anaviy oilalarda agar kelin oilaning urf-odat va an`analarini davom ettirishga qaynona-qaynota tomonida loyoqatsiz deb topilsa qiz ota-onasini uyiga qaytarib yuborilgan ammo farzandlar kyovning merosxo'rлари sifatida olib qolingga. Shu sababli Yaponiyada qaynonalarning o`rni kelinlar uchun juda yo`qori hisoblangan. Yaponiyada shaxs jamiyatning bir bo`lagi sifatida qaralmaydi, balki oila jamiyatning bir bo`lagidir. 1960-70 yillardan boshlab an'anaviy oilalar o`z ahamyatini yo`qota boshladи. Bunga sabab Yaponiyada davlat ishlarini ko`payishi va oilalar oylik oladigan farzandlar alohida yashashga o`tishi bilan boshlandi. 1990-2000-yillarga kelib ayollar ham erkakalar qatori oliv ma`lumotli bo`lishi va jamiyatning har taraflama teng ishtirokchilariga aylanishi natijasida kelinlarga oldingi bosimlardan qutila boshladи. Ammo endi katta bir muommo paydo bo`layotgandi. Keksa oila a`zolari oldingi kabi mavqeiga ega emasligi. Davlat qonunlarida va an`analarda keksalarga farzandlar g'amxorligi mavjud bo`lsada oldingidek qaynota-qaynonaga ehtirom va e'tabor kamayib bordi. Shuningdek Yaponiyada tug`ilish keskin pasayib ketdi. Yapon kelinlari ko`proq ishlab kamroq farzand dunyoga keltira boshladи. Bu hozirda yosh ishchi kuchini

yetishmasligiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda Yaponiyada muommoga aylangan yana bir holat bu turmush qurish yoshidagi ayollarning yetishmasligidir.

G`arbning ta`siri natijasida Xitoyda oila institutlari o`zgarayotgan bo`lsada. O`z an`analarini munosib davom ettirib kelmoqda. Masalan Xitoyda hamon oilada er qonun qoidalarni o`rnatadi. Kelin erining qarindoshlarini ismini aytib chaqirmaydi. Qaynonalar nabiralari tarbiyasida katta o`rin tutadi. Xitoy oilalarida bobo-buvilar, ota-onalar qattiq hurmat qilinadi. Uyning kattalari ovqat yemasdan kichkinalar ovqatlanishi uyat hisoblanadi. Qaynona-qaynota bilan birgalikda yashashga katta e`tabor berishadi. Agar joy masalasida muommo bo`lmasa katta oila bir joyda istiqomat qilishadi. Kelin uyni bekasi maqomiga faqatgina qaynona vafot etsagina erishishi mumkin. Xitoyda bolalarni tarbiyasiga, kundalik rejimiga qaynona ma`sul bo`ladi. Bu orqali bolaga an`analarni yoshlikdan singdirib borishga erishiladi.

Zamonaviy Xitoyda qaynona va kelin o`rtasidagi munosabatlar tahlili.

Zhongguo Funyu jurnali qaynona va kelin o`rtasidagi munosabatlar bo'yicha so'rov o'tkazdi. Pekin, Shanxay, Shandong, Xenan va boshqalar. 502 ta oila bilan suhbatlar va so`rovnomalar o'tkazildi, 239 nafar qaynona (o`rtacha yosh 64) va 263 nafar kelin (o`rtacha yosh 36) respondent sifatida ishtirok etishdi. So'rovda qatnashgan 70 foizga yaqin oilalar - 339 nafar qaynona (kelin) o`zaro munosabatlarini "juda yaxshi" va "etarlicha yaxshi" deb baholagan- bu respondentlarning 67,3 foizini tashkil qilgan. Munosabatni "juda yaxshi" deb baholagan respondentlarning - 28,7 foiz qaynona hamda 29,5 foiz kelinlardan tashkil topgan.

Qaynona va kelin o`rtasidagi munosabatlarning yaxshi bo`lish omili sifatida kelinning ta'lim darajasi va daromadi bilan chambarchas bog'liq ekani so`rovnomalar natijasiga ko`ra ma`lum bo`ldi: daromad va ma'lumot qanchalik yuqori bo`lsa, kelin va qaynona o`rtasidagi munosabatlar iliqroq bo'ladi. So`hbatlardan ma`lum bo`lishicha xitoylik qaynonalar yoshi kichik kelinlar bilan kelishish yoshi kattaroq kelinlarga nisbatan qiyinroq deb hisoblashadi.

So'rovda qatnashgan qaynona va kelinlarning yarmidan ko'pida o`zaro kelishmovchiliklar bo`lmagan. Oilalarning 16,5 foizida "janjal, o'g'lining (erining) orqasidan shikoyat qilish" holatlari natijasida kuzatilgan, 10 foizdan kamida esa janjal kelib chiqmagan. Janjal kelib chiqmsligini sababi esa "yon berish, sukut saqlash" deb takidlagan qaynona-kelinlar. So'rov natijalariga ko`ra, keyingi yillarda kelinlar va qaynonalarning o`zaro bag'rikengligi, mehr-oqibatliligi kuchaygan. Shu bilan birga, xitoyliklar qaynona va kelin o`rtasidagi ziddiyatlarni yechimi sifatida

alohida yashash deb hisoblashadi. Hozirgi kunda Xitoyda qaynona va kelinlarning atigi 22,6 foizi birga yashaydi

So'rovda qatnashgan kelin va qaynonalarning yarmidan ko'pi erini (o'g'lini) bir-biri bilan munosabatlarda vositachi deb biladi. Respondentlarning ba'zilari o'g'liga (eriga) chuqur umid va ishonch bildirishgan. So'rov ma'lumotlariga ko'ra, o'g'illar (erlar) xotin va ona o'rtasida vositachilik qilishda teng yondashadi degan fikrni bildirishgan. Ammo qaynonalarning 10% dan kamrog'i o'g'illari "Onasini kelini xafa qilsa ham xotinlarini yonini olishadi", deb hisoblashadi. Kelinlarning faqat 3,5% xotinlar erlarini onalari tomonida "boshqariladi" deb hisoblanadi

Eng muhim, qaynona-kelinlarni ochko'zlik va mayda-chuydalikni, takabburlikni, kelinlarning haddan tashqari ishga, karyera shungib ketishini yoqtirmaydilar va ularning uy yumushlarini ko'proq qilishlarini xohlashadi.

Kelinlarning nuqtai nazarida, qaynona va kelinning tinch-totuv yashashi uchun eng muhim, kelinning qanday bo`lsa shundayligicha qabul qilishi kerak. unga qizi kabi yaxshi munosabatda bo'lishi va uni tushunishi, o'zini tuta olishi, uni qo'llab-quvvatlashi, kelinni fikrlari bilan hisoblashishi kerak.

So'rov shuni ko'rsatdiki, "qaynona-kelin" munosabatlarini mustahkamlovchi harakatlar bir-biriga samimiy g'amxo'rlik bilan birga, o'zaro tushungan holda muloqot qilishga ham ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Amerikada an'anaviy oilalar qo'llab quvvatlanadi. An'anaviy oilalar bobo-buvilar bilan ikki-uch avlodning birga katta oila bo`lib yashashidir.Qo'shma shtatlarda 1950- yillargacha asosan an'anaviy oilalalar mavjud bo`lgan.Ammo vaqt o'tishi bilan ajrimlar ko`payib bordi.Amerika oilalalarining turli versiyalari shakillana boshladi.1970- yilga kelib amerikada yadro oilalar keng tarqaldi.Bunday oilalalarda er-xotin va bolalar yashar edi.Qaynona-qaynotalar esa tez-tez xabar olib turilar edi.Amerikada bunday oila tarqalishiga sabab asosan ayollar bo`lib,ular ko'p vaqtini oilada emas ish va o'z karyerasini rivojlantirish uchun sarflay boshladi.2016 yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Aholini ro'yxatga olish byurosining o'tkazgan so'rovnomasidan qo'ydagilar ma'lum bo`ldi.1960 yilda tug'ilgan insonlarning 75% bobo-buvilar bilan yashagan bo`lsa, 1990 yildan kiyin tug`ulgan insonlarning atiga 12% bolaligida an'anaviy oilalar bilan yashagnini aytishgan

Qo'shma Shtatlarda 117 millionga yaqin uy xo'jaliklari mavjud.Bu raqamning qariyb 67 foizi oilaviy uy xo'jaliklari va 33 foizi oilasiz uy xo'jaliklaridir.Oilaviy bo'limgan uy xo'jaliklarining aksariyati faqat bir kishidan iborat.Amerikada hozirgi kunda har ikki oiladan biri ajrim bilan tugamoqda. Amerika oilalarida qaynona kelin munosabatlari boshqa davlatlarga qaraganda o`zgachadir. Sharq va Osiyo

mamlakatlarida qaynota qaynona yosh kelin va kyovni oilasiga aralshishi, yo'l-yo`riq ko`rsatishi, nevaralariga g`amxo`rlik qilishi mumkin. Bu an`analar tabiiy qabul qilinadi. Ammo Amerikada bu munosabatlar umuman boshqacha. Masalan yosh oila qachonki muommosini aytishga tayyor bo`limguncha qaynona yoki oilaning kattalari bu haqda so`rashmaydi. Amerikalik qaynonalar nabiralariga g`amxo`rlik qilish ularning zimmasida deb hisoblashmaydi. AQShda bolaga ota-on a g'amxo'rlik qilishi kerak, deb hisoblashadi. Chunki bu ular va bola o'rtasidagi bir umr davom etadigan psixologik aloqani mustahkamlaydi. Bundan tashqari, bolalar onasi va dadasi bilan muloqot qilishda qulayroqdir, chunki bu avlodlar bobo-buvilardan farqli o'laroq ularga yaqinroqdir. Amerikalik nafaqaxo'rlarning bepul hamshira va enagalarga aylanmasligining yana bir sababi shundaki, ular o'zlarini ancha yosh his qiladilar va ularning ko'pchiligidagi shaxsiy hayotlarida hamma narsa bor. Keksa odamlar osongina ajrashishadi, keyin esa yangi munosabatlarga kirishadilar. Hatto 70 yoshli qariyalar ham. Biroq, shaxsiy hayot nafaqat nikoh va munosabatlar bilan bog'liq. Qo'shma Shtatlardagi ko'plab nafaqaxo'rlar kun bo'yi uyda o'tirmaslik uchun sayohat qilishadi, yangi kasblarni o'rganishadi yoki ko'ngilli bo'lishadi. Merilend Ijtimoiy ish universiteti professori Djefri Greif, 1500dan ortiq qaynona va kelinlardan so`rovnama otkazgan. So`rovnama natijalarini "Qaynonalar, qizlar, otalar va o'g'illar" kitobida quydagi statistikani keltirib o'tgan. Bu so`rovnomada qaynona va kelinlarning bir-birini qanday his qilishini o`rgangan.

- Qaynonalarning 33%, kelinim bilan juda yaqinman deb hisoblashar ekan, kelinlar esa qaynonam bilan yaqinman deb faqat 18% hisoblar ekan.
- Qaynonalarning 42% kelinlariga qoyil qolishlarini tan olishgan bo`lsa, kelinlarda bu ko`rsatgich 23% tashkil etgan.
- Siz qaynonangiz (keliningiz) bilan birga vaqt o`tkazishga rozimisiz degan savolga 37% qaynonalar "ha" javolini bergan bo`lsa, kelinlarda bu atiga 22%ni tashkil qildi.

Kelingizga (qaynonangizga) ishonasizmi so`roviga esa 50% qaynonalar "ha" javobini bergan bolsa, kelinlarning 23foizi bu fikrga qo`shilishini aytishgan. Bu so`rovnomadagi javoblardan xulosa shuki Amerikada qaynona va kelin munosabatlari "ijobiy emas.

Pokiston.

Pokiston ijtimoiy hayoti oila va qarindoshlar atrofida aylanadi. Hatto eng g'arblashgan elita vakillari orasida ham oila o'zining asosiy ahamiyatini saqlab qoladi. Oila ijtimoiy tashkilotning asosi bo'lib, uning a'zolarini o'ziga xoslik va himoya bilan ta'minlaydi. Biror kishi kamdan-kam hollarda qarindoshlaridan

alohida yashaydi; hatto shaharlik erkak migrantlar odatda qarindoshlari bilan yashaydilar. Bolalar turmushga qadar ota-onalari bilan yashaydilar va o'g'illar ko'pincha nikohdan keyin ota-onalari bilan qolib, qo'shma oilani tashkil qiladilar.

Uy xo'jaligi asosiy qarindoshlik birligidir. Ideal yoki kengaytirilgan shaklda u er-xotinni, ularning o'g'illarini, o'g'illarining xotinlari va bolalarini va turmushga chiqmagan avlodlarini o'z ichiga oladi. O'g'illar otalari vafotidan keyin alohida oila quradilar. Kengaytirilgan uy xo'jaliklari chidaydimi yoki yo'qmi, ishtirok etayotgan shaxslarning afzalliklariga bog'liq. Ayniqsa, ayollar (qaynona va kelinlar) o'rtasidagi janjal va bo'linish qo'shma xonadonning muddatidan oldin tarqalishiga olib kelishi mumkin.

Nasl ota-bobolar tomonidan hisobga olinadi, shuning uchun faqat erkak ajdodlar orqali qarindosh bo'lganlar qarindosh hisoblanadi. Biradari yoki erkak qarindoshlar guruhi (patrilineage) ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Uning a'zolari na ko'char mulkka ega, na umumi daromadga ega, lekin alohida a'zolarning sha'ni yoki sharmandaligi jamiyatdagi *biradarining* umumi mavqeiga ta'sir qiladi. Bu fikrni keng tarqalgan maqolda ifodalaydi: "Nonga sherik bo'lmaydi, uyatga sherik bo'ladi".

Nazariy jihatdan, biradari a'zolari bitta qishloqning rezidentlari hisoblanadi. Ba'zi hududlarda esa yerlarning parchalanishi va avlodlarning chetga ko'chishi ko'plab biradori a'zolarining *turli* qishloqlar, tumanlar va shaharlar o'rtaida tarqalib ketishiga olib keldi. Qarindoshlar o'zlarining tug'ilgan qishloqlari bilan aloqalarni davom ettiradilar.

Biradari a'zolari asosiy hayotiy voqealarni birgalikda nishonlashadi. Qarindoshlar tug'ilish, nikoh, o'lim va asosiy diniy bayramlar bilan bog'liq marosimlarda oziq-ovqat va mehmonlarni kutishdagi xarajatlarga yordam berishadi. Qarindoshlar bir-biri bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari uchun katta bosim mavjud. Nikoh yoshidagi o'g'il-qizlari bo'lган odamlar yaxshi munosabatlarni saqlab qolish zarurligini qattiq his qiladilar, chunki oilasi o'z birodari bilan ziddiyatga ega bo'lган kishi *yomon* turmush qurish istiqboli hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Family_in_the_United_States
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Japanese_family
3. Ariga, K. (1954). "The Family in Japan". *Marriage and Family Living*.**16**(4): 362–368. doi:10.2307/348444

4. <http://www.columbia.edu/cu/weai/exeas/resources/pdf/japanese-family-imamura.pdf>
5. <https://dzen.ru/a/Y0QwzsRhMUSPX3B6>
6. <https://theflatbkny.com/asia/why-did-the-sri-lankan-tamils-launch-parties-and-struggle/>